

**XORAZM VILOYATI XIVA SHAHAR ”NURLI MASKAN”
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATI HAQIDA**

Ismoilova Ullibibi Arslonbekovna

Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo ‘nalishi talabasi



Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi kundan-kun ortar. Bu xazinaga ega bo‘lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo bo‘ladurgan hasad degan jonning eng zo‘r dushmanidan qutulurlar. Olamda dilni qanoat kabi poklaydigan narsa yo‘qdur.

Abdulla Avloniy

Haqiqatdan ham, tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizliqdir.

Abdurauf Fitrat

Bugungi kunda yurtimizda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun 90 ta Ta’lim va tarbiya maskanlari bo‘lib, shulardan 17 tasi “Nurli maskan” Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlaridir. Men Xorazm viloyatining Xiva shahrida joylashgan Nurli maskan ixtisoslashtirilgan maktab-internatida bo‘lib ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalarning qanday ta’lim-tarbiya olayotgani, ularning salohiyati, qobiliyati, yutuqlari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldim. O‘z navbatida bu sohaning yutuq va kamchiliklari bilan ham yaqindan tanishdim.

Men borgan ta‘lim dargohida deyarli hamma narsa o‘zgacha edi. Daftар ruchka hatto yozuv ham boshqacha bir-birini qo‘lidan tutib yuruvchi o‘quvchilar tovushlar olamida yashaydi. Bu ta‘lim maskani o‘qituvchilarini nafaqat ustoz deb balki ularni imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini orzular sari dadil intilib, dunyonи tafakkur va tassavur bilan anglashga umid va ishonch uyg‘otuvchi fidoyilar deb atash mumkin. O‘quvchilar fikrlarini eshitib shunga amin bo‘ldimki ular hayotga bilimga shunchalik chanqoq. O‘quvchilar: “Bizning sog‘lom insonlardan kam joyimiz yo‘q, hatto ustun taraflarimiz bor sog‘lom insonlar chiroq yo‘q paytda kitob o‘qiy olmasligi mumkin bizga chiroqning ahamiyati yo‘q bizda imkoniyat ko‘proq”, - deya meni hayron qoldirdilar. Ko‘zi ojiz insonlar dunyonи qalb ko‘zi orqali idrok etishadi. Ma’lumot o‘rnida ushbu maktab 120 o‘ringa mo‘ljallangan. O‘quvchilar uchun barcha sharoitlar bisyor. Shinam sinf xonalardan, darslik va badiiy adabiyotlardan tashkil topgan kutubxona, ko‘zi ojizlar uchun zamonaviy “Jauz” va NVDA gapiruvchi dastur o‘rnatilgan kompyuter xonasi, saramjon va ozoda yotoqxonalardan, fayzli oshxonadan, maktab ichkari hovlisida mini sport maydonchasidan iborat. Maktab direktori Anvar Jumaniyozovning so‘zlariga qaraganda “Nurli maskan”ga o‘quvchilar 6, 7 yoshdan qabul qilinadi. O‘qituvchilarning qariyb 60 foizi ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘rvuchi ustoz-murabbiylardir. Muassasa rahbari bu holatni o‘quvchilar qatlami ham xuddi

shunday xastalik bilan kurashib kelayotgani uchun ular chiqishadi deb izohlaydi.

o‘zaro yaxshi

Bu maktab o‘quvchilari jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramay muntazam yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Jumladan 2021 – yil 1 – 6 iyul kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan shashka musobaqasida mazkur maktab o‘quvchisi Sobirova Gulsanam sportning shashka turi (klassik yo‘nalishi) bo‘yicha faxrli 3 – o‘rinni egallab O‘zbekiston championi nomiga sazovor bo‘ldi va O‘zbekiston terma jamoasiga taklif qilindi. Shuningdek Sobirova Gulsanam Fransiya davlatida bo‘lib o‘tadigan jahon championatida ishtirot etish huquqini qo‘lga kiritdi.

2022 – yil 24 - 30 aprel kunlari Buxoro viloyatida sportning shaxmat turi bo‘yicha o‘tkazilgan O‘zbekiston championatida Otakeldiyev O‘ktam shaxmat yo‘nalishi bo‘yicha 3 – o‘rinni egallab, Chirchiq jismoniy tarbiya institutiga grant asosida o‘qishga qabul qilindi. Sobirova Gulsanam shaxmat yo‘nalishi bo‘yicha faxrli 2 – o‘rin, Jumaniyazov Javlon sportning shaxmat turi (rapid yo‘nalishi) bo‘yicha faxrli 2 – o‘rin, Yo‘ldosheva Yulduz shaxmat bo‘yicha faxrli 3 – o‘rinni qo‘lga kiritishgan. Samarqandda bo‘lib o‘tgan Armrestling bo‘yicha Osiyo championatida Ramanova Umrinso faxrli 2 – o‘rinni, Polvonnazirov Shuhrat ham faxrli 2 – o‘rinni egallab, shu yili Antaliyada o‘tkaziladigan Jahon championatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritishdi. Toshkent shahrida Nurli maskan maktab-internatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Fan olimpiadasining Respublika bosqichida Boltayev Sarvar Matematika bo‘yicha 1-o‘rin, Ochilov Daston 2-o‘rin hamda Rustamova Rayhon Ona tili va adabiyot fanidan 3-o‘rinni egallahsgan. 2023 – yil Toshkentda o‘tkazilgan paraolimpiada o‘yinlarida Jumaniyozov Javlon shaxmat bo‘yicha 2 – o‘rin. 2024 – yil Buxoroda o‘tkazilgan paraolimpiada o‘yinlarida shashka bo‘yicha Sobirova Gulsanam faxrli 3 – o‘rinni, G‘ayratjonov Nurbek faxrli 3 – o‘rinni egallagan. Sportning yengil atletika turi bo‘yicha o‘g‘il bolalar o‘rtasida 400 metrga yugurish bo‘yicha Ataboyev Og‘abek faxrli 1 - o‘rinni 2 marta qo‘lga kiritgan. Shu munosabat bilan ustozni Rahimov Bohram Tangriberganvichga oliy toifa berildi. Yo‘ldoshov Tohir 2023-yil 13-dekabrda Para Zyudo bo‘yicha viloyat bo‘yicha 1-o‘rinni egallab Respublika Zyudo terma jamoasiga qabul qilindi. O‘quvchilar bu g‘ayrat va shijoatini ustozlaridan o‘rganishgan. Hukumatimiz bunday jonkuyar fidoyi ustozlarning mehnatlarini e’tibordan chetda qoldirmay munosib baholab, rag‘batlantirib kelmoqda.

Bu maktabda ta’lim tarbiya berib kelayotgan ustozlar ham bir qator yutuqlarga erishganlar. 1964-1972 yillar shu maktabda tahsil olib, 1975-1979 yillarda hozirgi Urganch davlat Universiteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi yo‘nalishida tahsil olgan. 1979 - yildan buyon boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib faoliyat yurgizib kelayotgan Matchonov Xurmat Ahmedovich 1986-yildan uzluksiz ravishda Kasaba uyushma qo‘mitasi boshlang‘ich tashkilotiga raxbarlik qilib kelmoqda. 1986-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2006-yil “Shuhrat” medali, 2019-yil “Ehtirom” ko‘krak nishoni, 2021-yil “Kasaba uyushmalariga 1 yil” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Ustozning turli yillarda ta’lim olgan o‘quvchilaridan 9 nafari o‘zi bilan birga faoliyat olib bormoqda, maktab direktori Anvar Jumaniyozov va o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘ribbosari Farhod Masharipovlar ham shular jumlasidandir.

Bu maktabda 2014-yildan buyon ishlab kelayotgan Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Jabborov Ro‘zmat Ollanzarvich o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birgalikda o‘quvchilarning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish hamda intelektual salohiyatini yanada oshirish maqsadida Zakovat klubini tashkil qilgan bo‘lib, maktabning yuqori sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan jamoasi bilan birga shahar, viloyat va Respublika doirasida o‘tkazilib kelayotgan turli musobaqalarda faol ishtirok etib faxrli o‘rnlarni egallab kelmoqda. Bundan tashqari ustozning qator shogirtlari “Yosh Kitobxon” ko‘rik tanlovida ishtirok etib kelmoqda, Qutlumurodov Umidjon 2018-yilda o‘tkazilgan tanlovning Respublika bosqichida faxrli 2-o‘rinni egallagan. Shu bilan birgalikda ustoz bitiruvchi sinf o‘quvchilarini Respublika fan olimpiadasiga hamda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlariga Ona tili va adabiyot fanlaridan chuqurlashtirilgan dastur asosida tayyorlab kelmoqda. Bu maktabda barcha fanlar qatori ingliz tili faniga ham qiziqish yuqori ekanligini sezdim. Ushbu maktabda faoliyat yuritib kelayotgan ingliz tili fani o‘qituvchi Yaxshimurotov O‘ktamboy Saburovich ko‘zi ojiz bo‘lishiga qaramay 2023-yil ingliz tili CEFR imtihonidan B2 darajani qo‘lga kiritgan. Har bir bitiruvchi sinflar bilan suhbat o‘tkazib ularning qiziqishidan kelib chiqib oliy o‘quv yurti talabasi bo‘lishlarida o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Bu ta’lim dargohida 1979-1990 yillarda shu maktabda tahsil olib, 1990-1995 yillarda Toshkent davlat Milliy Universitetining Jurnalistika fakultetida o‘qigan 1998-yildan buyon shu maktabda Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib faoliyat yurgizib kelayotgan Jumaniyozova Umida Sa’dullayevna 2004-2008 yillarda Toshkent davlat Nizomiy nomidagi Pedagogika Universitetida Boshlang‘ich ta’lim va sport (sirtqi) yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olgan. 2020 – yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2021 – yil “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan. Ustoz pedagogik faoliyati bilan birga badiiy adabiyot bilan ham muntazam shug‘ullanib kelmoqda. Uning “Yurak sirlarim” she’riy to‘plami nashr etilgan. Buxoroda o‘tkazilgan O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyatida ijod forumida badiiy o‘qish bo‘yicha “Ko‘ngil surati” nominatsiyasini olgan. Xiva shahrida o‘tkazilgan bahor fasli kirib kelishi munosabati bilan Ayollar Sportakiyadasida shashka bo‘yicha 2022-yil 1-o‘rin, 2023-yil 2-o‘rinni egallagan.

Ibragimova Feruza Niyozmetovna 2020-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishonini, Masharipov Farhod Komilovich 2022-yili “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan, Qilichov Ne’matjon Yo‘ldoshevich “O‘zbekiston Konstitutsiyasining 36 yilligi” ko‘krak nishoni bilan Yo‘ldosheva Hilola Bahodir qizi 2019-yil “Eng yosh kitobxon” II darajali Diplom bilan taqdirlanishgan. Matematika fani o‘qituvchisi Salayeva Sevinch Xushnudovna 2022-yilda “Konstitutsiyamizning 30 yilligi” ko‘krak nishoni, 2023-yilda “Xalq ta’limi fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mazkur maktab o‘qituvchilari ham o‘quvchilari ham ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘rvuchi bo‘lishiga qaramay doimo izlanishda ekanligi sog‘lom insonlarga o‘rnak bo‘lsa arziydi. Bu “Nurli maskan” da maktab bitiruvchilarining deyarli 75 foizi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinib jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishmoqda. O‘quvchilar qator yutuqlarga erishishgan bo‘lsalarda ba’zi-ba’zida moddiy tarafdan muammolarga

ham duch kelishadi. O‘quvchilarni qishki ta’tilda va yaqinda 8-mayda, Respublika bo‘yicha yengil atletika va shaxmat, shashka musobaqalariga taklif qilinganligiga qaramasdan safar harajatlariga mablag‘ yetarli bo‘lmaganligi sababli iqtidorli yoshlar musobaqalarda ishtirok eta olishmadi. Nurli maskan maktablari ham darslarni umumta’lim darsliklaridan o‘tishadi, lekin bugungi kundagi yangi darslikning Brayl yozuvi asosida chiqarilgan shakli yo‘q. Mutasaddilar darsliklarni yangilayotgan paytda alohida ta’limga ehtiyoji bor o‘quvchilarni ham hisobga olishsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Agar bu o‘quvchilarga kengroq imkoniyat yaratilsa bundan ham ko‘proq yutuqlarga erishishgan bo‘lishardi. Biz uchun ko‘cha-kuyda harakatlanish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi hamma sharoitlar bisyor. Biroq ular ham sayr qilishni, shahar aylanishni istashadi. Afsuski, bu borada biz anchagina orqadamiz. Shaharsozlikda, jamoat joylarida mana shunday insonlarning ham harakatlanishini hisobga olib qulaylik yaratsak maqsadga muofiq bo‘lardi. Zero, ular bizdan qulaylik istashadi xolos. Ko‘zi ojiz insonlarning ko‘ngli juda nozik, eshitish, eslab qolish, sezish qobiliyati biznikidan bir necha barobar kuchli bo‘larkan. Bu afzalliklar bilan ular ham jamiyatda sog‘lom insonlar qatori o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy “TURKIY GULISTON YOHUD AXLOQ” “Turon zamin” nashriyoti, Toshkent – 2023
- 2.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI BIRLASHGAN TAXRIRIYATI “NURLI MASKAN ORZULARI”, Toshkent – 2022
3. O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar Jamiyati Markaziy Boshqaruvi “ Bir Safda” ommaviy-ijtimoiy va adabiy-badiiy jurnali.
- 4.Jadid adabiyoti namoyandalari “Odob-Axloq kitobi” Yangi asr avlodи Toshkent-2016.
- 5.Rajabbibi Sharipova, Matyoqub Abdullayev, Zevarjon Avezova “MUQADDAS DARGOH” Xivadagi 121 – ko ‘zi ojiz bolalar maktab-internati tarixidan lavhalar Urganch – 2005.